

Otabek Muhammadzohid**"Qo'ynimda bir yor"**

Visit "[Qo'ynimda bir yor](#)" on [MotoLyrics.com](#)

Muhabbat bog'iga kirmadim bir bor,
Suygan gulimga qo'l urmadim bir bor,
Endi tunlar yig'lar menga qo'shilib,
Qo'ynimda bir yoru ko'nglimda bir yor.

Biri birisiga o'xshamas, yorab,
Ko'zimning yoshlari to'xtamas, yorab,
Kularman bir unga, bir bunga qarab,
Qo'ynimda bir yoru ko'nglimda bir yor.

Birin erkalayman nigohim bilan,
Birisin erkalab dudog'im bilan,
Yashayman savobu gunohim bilan,
Qo'ynimda bir yoru ko'nglimda bir yor.

Daryoman, ikkita qirg'oqda ko'zim,
Tomog'imda qo'zim, tovonda qo'zim,
Ikki o't ichinda qiynoqda o'zim,
Qo'ynimda bir yoru ko'nglimda bir yor.

Visit [Otabek Muhammadzohid](#) page on [MotoLyrics.com](#), to get more lyrics and videos.